



KORPORATIV HUQUQDA ULUSHGA EGALIK QILISHNING QONUNIY ASOSLARI

Davronov Azizbek Baxodir o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi xodimi*

Electron pochta manzili:

davronovazizbek02201998@gmail.com

Tel. raqam: +998 93 005 84 88

Xo’jalik jamiyatlarida ulushga egalik qilishning qonunda nazarda tutilgan va jamiyatning ta’sis hujjatlarida aks etgan normalar asosida ega bo’lish mumkinligi nazarda tutilgan. Shuni ta’kidlab o’tish kerakki, qonunda ko‘rsatilgan normadan past darajadagi yoki unda ko‘rsatilgan huquqlardan past darajadagi normalar ta’sis hujjatlariga kiritilishi mumkin emas. Aynan ushbu qonun normalari orqali ulushga ega bo‘lishning shartlari va zaruriyatları kelib chiqadi. Yuqorida aytib o’tganimizdek, yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning ishtirokchilari bo‘lishi mumkinligi belgilab berilgan. Bu shuni anglatadi, har qanday yuridik va jismoniy shaxs (ayrim toifadagi shaxslardan tashqari qonunda nazarda tutilgan)lar jamiyatning ishtirokchilari bo‘ladilar. Ishtirokchi bo‘ldi degani bu – jamiyat ustav fondida ma’lum miqdordagi ulushga ega ekanligini bildiradi. Ulushlarga ega bo’lish esa ma’lum huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi.

Shu o‘rinda ayrim toifadagi jismoniy shaxslar kimlar ekanligiga oydinlik kiritib o‘tsak, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Qonunchilik normalariga ko‘ra davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida xodimlar jamiyatning ishtirokchilari bo‘lmasligi aytib o‘tilgan.¹ Demak, ulushga ega bo‘lishning dastlabki qonuniy shartlaridan biri sifatida jismoniy shaxsning davlat organlarida faoliyat yuritmaslik yoki boshqaruv organlarida mas’ul lavozimlarda faoliyat yuritmasligi shartligini olishimiz mumkin ekan. Agar qonunchilikda ruxsat berilgan taqdirda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari xodimlari ishtirokchilar bo‘lishlar mumkinligi keltirib o‘tilgan. Biroq ulushlarga ega bo‘lish yoki bo‘lmaslik jamiyatning ta’sis hujjatlarida keltirib o‘tilishi mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi 310-II-sloni “Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 7-modda. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son. <https://lex.uz/docs/-22525>



Qonunga ko‘ra jamiyatning ta’sis shartnomasida jamiyat ishtirokchilar tarkibi belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda biz aytishimiz mumkinki, ta’sis hujjatlarida ishtirokchi bo‘lishi uchun ma’lum shartlar qo‘yilishi mumkin degan fikrga kelishimiz mumkin. Misol uchun, ishtirokchining ulushi uning yaqin qarindoshlariga sotilmasligi yoki boshqacha usulda o‘tkazilmasligi haqida cheklov kiritilib qo‘yilishi mumkin. Muassislar jamiyat tuzilishining dastlabki davrida kelgusidagi harakatlarini tartibga solishiga qaratilgan jamiyatning ta’sis hujjatlarini qabul qiladilar va ularga amal qilishlari haqida kelishib oladilar. Ulushlarga ega bo‘lishning zaruriyatları va shartlari faqat qonun normalari bilan emas, balki ichki kelishuv va shartnomalarda nazarda tutilgan imtiyozlar yoki cheklovlar berilishi orqali belgilanishi mumkin. Fuqarolik qonunchiligiga ko‘ra qonun normalariga zid bo‘lmagan har qanday shartnomalar tuzilishi mumkinligi nuqtai nazaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, jamiyat muassislarining cheklov va imtiyoz borasidagi kelishuvlari qonunga zid emas. Chunki aynan biron bir qonunda shunaqa imtiyoz yoki cheklov kiritishning qonunga zid ekanligi aniq aytib o‘tilmagan. Masalaga shu tarafdan yondashadigan bo‘lsak, yuqorida bildirib o‘tgan faktlarimiz qonun doirasida deb o‘ylaymiz.

Jamiyat ustav kapitalidagi ulushlarning boshqa shaxslarga o‘tishi Qonunning 20-moddasida belgilab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra ulushning boshqa shaxsga o‘tishning uch turi mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat²:

-  ulushni sotish;
-  boshqa shaxs foydasiga voz kechish;
-  meros qoldirish.

Qonunga ko‘ra jamiyatning ishtirokchisi ustav fonididagi o‘z ulushini yoki uning ma’lum bir qismini sotishga yoki boshqacha tarzda(yuqorida sanab o‘tilgan holatlar) ulushni tasarruf etishi mumkin. Jamiyat ishtirokchisi jamiyatning ustav kapitalidagi o‘z ulushini yoxud uning bir qismini jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotishga yoki o‘zga tarzda ular foydasiga voz kechishga haqlidir. Bunday bitimni tuzish uchun, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, jamiyatning yoki jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligi talab qilinmaydi. Jamiyat ishtirokchisi, agar jamiyatning ustavida taqiqlangan bo‘lmasa, o‘z ulushini (ulushining bir qismini) uchinchi shaxslarga sotishi yoki boshqacha tarzda ularning foydasiga voz kechishi mumkin. Jamiyat ishtirokchisining ulushi to‘liq to‘langunga qadar bo‘lgan davrda u faqat to‘langan qismi bo‘yicha boshqa

² O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi 310-II-sloni “Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g’risida”gi Qonuni. 7-modda. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son.



shaxsga o‘tkazilishi mumkin. Bu qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu normada masalan jamiyat ishtirokchisi o‘ziga tegishli ulushni 38 foizini boshqa ishtirokchiga yoki uchinchi shaxsga sotdi. Bunda uchinchi shaxs olmoqchi bo‘lgan ulushning 25 foizini to‘lovini amalga oshirdi deylik qolgan qismini to‘lovini amalga oshirmadi. Shunda ulushni olgan shxsda faqat to‘lovni qilgan 25 foizi unga o‘tishi mumkin qolgan 13 foizi ulushni sotgan ishtirokchida qoladi.

Jamiyat ishtirokchilar jamiyat ishtirokchisining ulushini (ulushining bir qismini) uchinchi shaxsga taklif qilinadigan baho bo‘yicha o‘z ulushlari miqdorlariga mutanosib ravishda sotib olishda imtiyozli huquqdan, agar jamiyatning ustavida yoki jamiyat ishtirokchilarining kelishuvida mazkur huquqni amalga oshirishning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo‘lmasa, foydalanadilar³. Bunda shunga e’tibor qaratish kerakki, ta’sis hujjatlarida ulushni sotib olish va sotish borasida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmalar qonunchilikka ko‘ra jamiyatning har bir ishtirokchisi sotib olishni ustav fondidagi o‘z ulushlariga mutanosib tarzda sotib oladilar va bu jarayonda jamiyat a’zosi bo‘lganliklari sababli jamiyat a’zosi bo‘lman shaxslarga qaraganda imtiyozli huquqlarga ega bo‘ladilar.

Demak, jamiyatning a’zosi bo‘lish ham ulushga egalik qilishning zaruriy shartlari qatoriga qo‘sksak bo‘lar ekan. Sababini esa quyidagicha izohlaymiz. Qonun ulushning jamiyat a’zosi bo‘lman shaxslarga sotishilishi yoki boshqa usulda o‘tishini cheklagani yo‘q, shunchaki u yerda agar ta’sis hujjatida biror narsa nazarda tutilmagan bo‘lsa deyilgan jumla uchraydi. Bu degani ta’sischilar tomonidan ulushning boshqa shaxslarga o‘tishini jamiyatning ustavida ta’qiqlab qo‘yadigan bo‘lsa, tabiiyki ulushga egalik qilish uchun birinchi navbatda jamiyatning ishtirokchisi bo‘lishligi talab qilinadi. Masalaga shu tomonidan yondashadigan bo‘lsak, jamiyatning a’zosi bo‘lish ulushga egalikning zaruriy tarkibiy elementlaridan biri desak adashmagan bo‘lamiz.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ta’sis shartnomasini imzolash orqali ishtirokchilar o‘zlariga bir qancha huquq va majburiyatlarni oladi. Shunday majburiyatlaridan biri bu – o‘z ulushini yoki uning bir qismini uchinchi shaxsga sotish niyatida ekanligi haqida hamda ulushning sotiladigan bahosi va boshqa shartlarni ko‘rsatgan holda bu haqda jamiyatning qolgan ishtirokchilarini yozma ravishda xabardor qilishi kerakligi aytib o‘tilgan. Bunda xabarnoma jamiyatning ustaviga ko‘ra ishtirokchilarga jamiyat orqali yuborilishini nazarda tutishi mumkin. Ulushning butun qismini yoki bir qismini sotib olish istagida bo‘lgan ishtirokchi

³ Company law. Second edition. Simon Goulding, BA, LLM, Barrister. Lecturer in law University of East Anglia. London.207.



xabarnoma olganidan keyin bir hafta ichida ulush egasiga qancha miqdorda sotib olishini ko'rsatgan holda xabardor qilinishi kerak bo'ladi. Agar berilgan takliflar sotish istagida bo'lgan ishtirokchi nazarda tutgan miqdordagi ulushga teng bo'lmasa, ishtirokchilarning har biri o'zлari ko'rsatib o'tgan miqdorda ulushlarni olishlari mumkin bo'ladi.

Agar bir hafta mobaynida qo'shimcha miqdorda sotib olish haqida jamiyatning ishtirokchilaridan takliflar kelib tushmasa, jamiyatning a'zosi bo'lmanan uchinchi shaxslarga o'tkazilishi mumkin. Yuqorida agar berilgan taklif sotilmoqchi bo'lgan ulushdan kam bo'ladigan holatda qanday harakat amalga oshirilishini ko'rib o'tdik. Agar endi berilgan taklif sotiladigan taklifdan ko'p bo'lganda, agarda jamiyatning ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ishtirokchilar ustav fondidagi ulushlariga mutanosib ravishda sotib olishlari mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Yuqorida uchinchi shaxslarga sotilishi mumkin bo'lgan ulush haqida gapirganimizda, taklif qilinganidan ortgan ulushlar belgilangan vaqt ichida qo'shimcha taklif qilinmaganda uchinchi shaxslarga sotilishi mumkinligini aytib o'tdik.

Quyida shunga qo'shimcha qilamiz, agar berilgan xabardan keyin, ya'ni ulush sotilishi haqida jamiyatning ishtirokchilari sotib olishni so'rab bir oy muddat ichida taklif bildirmasalar va o'zlarining imtiyozlaridan foydalanmaslar qonunga ko'ra bir oy muddat o'tganidan keyin ishtirokchilarga ma'lum bo'lgan narxlarda va shartlarda uchinchi shaxslarga sotilishi mumkin. Bunda berilgan bir oy muddat qonun bo'yicha, agar jamiyatning ustavida va ishtirokchilarning kelishuvida boshqa muddat belgilangan bo'lsa o'sha muddat bo'yicha ulushlar sotiladi. Jamiyatning ishtirokchilariga beriladigan imtiyozlar, ya'ni ishtirokchilarning ulushlarining miqdoriga nomutanosib ravishda sotib olishning imtiyozli huquqini amalga oshiruvchi qoidalar, dastlab, jamiyat tashkil qilinyotganda jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovoz bilan ma'qullanib jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritishilishi yoki bo'lmasa bunday imtiyozlar berilmasligi haqida kelishib olishlari mumkin⁴. Shuni ta'kidlab aytishimiz mumkinki, agar bunday imtiyoz haqida dastlabki paytda kelishib olinmagan bo'lsa, keyinchalik jamiyatning ustaviga kiritilishi mumkin. Agar ulush sotib olishning imtiyozli tarzda sotib olishning huquqlari buzilgan taqdirda, jamiyatning imtiyozli huquqqa ega bo'lgan ishtirokchisi tomonidan quyidagicha harakatlarni amalga oshirsa bo'ladi.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi 310-II-sloni "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni. 7-modda. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son.



Agar ustavda jamiyatning o‘ziga ulushni sotib olishda imtiyozli huquq berilgan bo‘lsa, imtiyozli huquq buzilib sotilganini bilgan vaqtidan boshlab uch oy ichida sotuvchining huquqlarini va majburiyatlarini o‘ziga o‘tkazilishini talab qilib sudga da’vo arizasi kiritish mumkin. Bu imtiyozli huquqdan boshqaning foydasiga voz kechishga yo‘l qo‘ymasligi belgilab qo‘yilgan. Jamiyatning ustavida jamiyat ishtirokchisining ulushini (ulushining bir qismini) sotishdan boshqacha tarzda uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish uchun jamiyatning yoki jamiyat qolgan ishtirokchilarining rozilagini olish zarurligi nazarda tutilishi mumkin. Jamiyat ustav kapitalidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechish, agar uni notarial shaklda amalga oshirish to‘g‘risidagi talab jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo‘lmasa, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.

Jamiyatning ustav kapitalidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) o‘zganing foydasiga voz kechish bo‘yicha bitimning ushbu modda yoki jamiyatning ustavida belgilangan shakliga rioya etmaslik uning haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi. Jamiyat ustav kapitalidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechilgani haqida bunday voz kechishning dalillarini taqdim etgan holda yozma ravishda jamiyat xabardor qilinishi lozim⁵. Jamiyatning ustav kapitalidagi ulushni (ulushning bir qismini) oluvchi mazkur voz kechish to‘g‘risida jamiyat xabardor qilingan paytdan e’tiboran jamiyat ishtirokchisining huquqlariga ega bo‘ladi va majburiyatlarini amalga oshiradi⁶. Jamiyatning ustav kapitalidagi ulushni (ulushning bir qismini) oluvchiga jamiyat ishtirokchisining mazkur ulushdan (ulushning bir qismidan) voz kechishiga qadar yuzaga kelgan barcha huquqlari va majburiyatlari o‘tadi. Jamiyatning ustav kapitalidagi ulushlar jismoniy shaxslarning merosxo‘rlariga va jamiyatning ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslarning huquqiy vorislariga o‘tadi. Jamiyatning ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, uning kreditorlari bilan hisob-kitob tugallanganidan so‘ng qolgan unga qarashli ulush, agar qonun hujjatlarida yoki tugatilayotgan yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, tugatilayotgan yuridik shaxsning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanadi⁷.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi 310-II-sonli “Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 7-modda. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son.

⁶ Корпоративное право в ожидание перемен. А.А. Кузнецов. 272.

⁷ Company law. Second edition. Simon Goulding, BA, LLM, Barrister. Lecturer in law University of East Anglia. London.207.



Jamiyatning ustavida ulushning o‘tishi va taqsimlanishiga faqat jamiyat qolgan ishtirokchilarining roziligi bilan yo‘l qo‘yilishi nazarda tutilishi mumkin. Jamiyatning vafot etgan ishtirokchisining merosxo‘ri tomonidan meros qabul qilingunga qadar jamiyatning vafot etgan ishtirokchisi huquqlari vasiyatnomada ko‘rsatilgan shaxs tomonidan, bunday shaxs bo‘lmagan taqdirda esa notarius tayinlagan boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar jamiyatning ustavida jamiyatning ustav kapitalidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) jamiyatning ishtirokchilari yoki uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish, ulushning (ulush bir qismining) merosxo‘rlariga yoki huquqiy vorislariga o‘tishi yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning ishtirokchilari o‘rtasida ulushning (ulush bir qismining) taqsimlanishi uchun jamiyat ishtirokchilarining roziligini olish zarurligi nazarda tutilgan bo‘lsa, agar jamiyat ishtirokchilariga murojaat etilgan paytdan boshlab o‘ttiz kun mobaynida yoki jamiyatning ustavida belgilangan boshqa muddat davomida jamiyatning barcha ishtirokchilaridan birortasidan rozilik olingan bo‘lsa yoki jamiyat ishtirokchilarining birortasidan rozilik berishga yozma raddiya olingan bo‘lmasa, bunday rozilik olingan deb hisoblanadi.

Jamiyatning ustav kapitalidagi ulush (ulushning bir qismi) ochiq kim oshdi savdosi orqali sotilganda, mazkur ulushning (ulush bir qismining) oluvchisi jamiyatning yoki uning ishtirokchilarining roziligidan qat’i nazar jamiyatning ishtirokchisiga aylanadi. Agar jamiyatning ustavida jamiyatning ustav kapitalidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) jamiyatning ishtirokchilari yoki uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish uchun jamiyatning roziligini olish zarurligi nazarda tutilgan bo‘lsa, agar jamiyatga murojaat etilgan paytdan e’tiboran o‘ttiz kun mobaynida yoki jamiyat ustavida belgilangan boshqa muddat mobaynida jamiyatning yozma roziligi olingan bo‘lsa, yoxud jamiyatdan rozilik berishga yozma raddiya olingan bo‘lmasa, bunday rozilik olingan deb hisoblanadi. Shu o‘rinda biroz chet el qonunchiligidagi ulushlarning o‘tishi qanaqa ekanligini haqida biroz ma’lumot berib o‘tamiz. Roman-german qonunchilik tizimida alohida ajralib turadigan huquq maktabalaridan biri bu shak-shubpasiz german qonunchiligi deyishimiz mumkin. Germaniya korporativ qonunchiligiga ko‘ra ulushlarni o‘tkazishda hech qanday cheklovlar o‘rnatilmagan. Ushbu davlatda ham jamiyatning ta’sis hujjatlarida biror bir cheklovlar bo‘lmasa ulushlarni o‘tkazish bo‘yicha boshqa cheklovlar uchramasligi aytilgan⁸. Shunday qilib ulushlarga egalik qilish uchun muhim va imtiyozli shartlaridan biri sifatida jamiyat a’zoligida bo‘lishi muhim omillardan biri sifatida ta’kidlab o‘tilgan. Chunki

⁸ <https://uk.practicallaw.thomsonreuters.com>.



jamiyatning ishtirokchisi bo‘lish orqali ular imtiyozlarga ega bo‘ladi. Bu imtiyozlar ulariga ulushlarga ega bo‘lishlarida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni;
2. A.Abdullayev. Iqtisodiy ishlar bo‘yicha sud amaliyoti. Toshkent – 2018;
3. Company law. Second edition. Simon Goulding, BA, LLM, Barrister. Lecturer in law University of East Anglia. London;
4. M.N.Saidov. “Mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish masalalari”. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati;
5. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. II-qism. –Toshkent: Ilm ziyo, 2008;
6. Корпоративное право в ожидание перемен. А.А. Кузнецов;
7. Фатхутдинов Р.С. Уступка доли в уставном капитале ООО: теория и практика. М., 2009.

Foydalilanilgan saytlar:

1. Lex.uz;
2. Norma.uz;
3. Advice.uz.